



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI**

20 24 yil “05” noyabr

237/09-2-qr - sonli

Toshkent sh.

**“O'zmaxsusmontajqurilish” AK ustav fondini kamaytirish va yangi
tahrirdagi ustavini tasdiqlash to'g'risida**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 58-59-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ – 102-son qarori, Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashтирish davlat komissiyasi yig'ilishining 2023-yil 12-aprel hamda 31-maydagi bayoni qarorlari, “O'zmaxsusmontajqurilish” AK (keyingi o'rinda - Kompaniya) yagona aksiyadorining 2023-yil 21-avgustdagi 131/09-3-qr-son qarori va Kompaniyaning 2024-yil 17-sentabrdagi 01-166/08-21-son murojaatiga asosan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi**:

1. Quyidagilar:

a) Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-iyuldagagi 565-son qaroriga asosan Kompaniya ta'sischiligidagi **“Buxoro Maxsus Montaj Qurilish” MChJga** qarashli ma'muriy bino va armatura, kasseta sexi inshootlarini 3 693 055 000 so‘m balans (qoldiq) qiymatida Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi “Buxara Sity majmuasi hududida obyektlarni qurish va ulardan foydalanish direksiyasi” DUKga berilishi natijasida kompaniya ustav kapitali 60 223 463 000 so‘mdan 56 530 408 000 so‘mga qadar, ya’ni 3 693 055 dona aksiyalarga kamaytirilganligi (*Kompaniyadan 388 so‘m qarzdorlik mayjud*);

b) Kompaniya yagona aksiyadorning 2019-yil 16-dekabrdagi 24-son qaroriga asosan, nominal qiymati 1 000 so‘m bo‘lgan umumiyligi 46 067 000 so‘mlik 46 067 dona oddiy qo‘srimcha aksiyalar chiqarilib davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi hisobiga Kompaniya ustav kapitali 56 530 408 000 so‘mdan 56 576 475 000 so‘mga yetkazilganligi;

d) Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-sentabrdagi 1013-f-son hamda 2019-yil 31-iyuldagagi 650-f-son farmoyishlariga asosan **“Toshmetroqurilish” MChJga** tegishli Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chorbog‘ ko‘chasi, 27b-uy manzilidagi bino va inshootlar Chilonzor tumani hokimligiga berilishi munosabati bilan Kompaniya yagona aksiyadorining 2020-yil 11-dekabrdagi 27-son qaroriga asosan, Kompaniya ustav kapitali 56 576 475 000 so‘mdan 53 728 444 000 so‘mga

qadar, ya’ni 2 848 031 dona aksiyalarga kamaytirilganligi (*Kompaniyadan mazkur bino va inshootlar qiymati o’rtasidagi farq hisobiga 374 so‘m qarzdorlik mavjud*);

e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldaggi PF-6273-son Farmoniga asosan “**93-maxsus trest**” AJ ustav kapitalidagi Kompaniya ulushini Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazilishi hisobiga Kompanianing ustav fondidagi davlat ulushini 14 559 010 000 so‘m bo‘lgan 14 559 010 dona aksiyalar, ya’ni Kompaniya ustav kapitalini 53 728 444 000 so‘mdan 39 169 434 000 so‘mga qadar kamaytirilganligi;

f) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagii PQ-168-son qaroriga asosan, “**Portlatishsanoat**” AJ ustav kapitalidagi 63,03 foiz aksiyalar paketi xususiyashtirilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagii PQ – 102-son qaroriga asosan, Kompaniya va uning tizim korxonalari (“*Toshkent maxsus montaj mexanizatsiya*” MChJ, “*Toshmetroqurilish*” MChJ, “*Jizzax montaj maxsus qurilish*” MChJ va “*Vzrivprom Dobicha*” MChJ) ommaviy savdolar orqali to‘liqligicha sotilishi belgilanganligi;

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagii PQ-102-son qarori va Xususiyashtirish davlat komissiyasi yig‘ilishining 2023-yil 12-apreldagi hamda 2023-yil 31-maydagi bayonlariga asosan, Kompanianing jami 31 569 937 600,0 so‘m ulushlari Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazilishi hisobiga, Kompaniya yagona aksiyadorining 2023-yil 21-avgustdagii 131/09-3-qr-son va 2023-yil 14-sentabrdagi 141/09-3-qr-son qarorlariga asosan, Kompaniya ustav kapitalidagi davlat ulushini 31 569 937 000 so‘m bo‘lgan 31 569 937 dona aksiyalarga, ya’ni 39 169 434 000 so‘mdan 7 599 497 000 so‘mga kamaytirilganligi;

Kompaniya balansida (06-satr) “**Portlatishsanoat**” AJ ustav kapitalidagi ulushi balans (qoldiq) qiymatda 7 937 065 405,19 so‘mni tashkil etishi;

Kompaniya tomonidan taqdim qilingan ma’lumotlarga asosan, 2024-yil 1-oktabr holatiga buxgalteriya balansining (1-son shakl) 06-satrida qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar jami 7 941 886 005,19 so‘mni tashkil qilishi, shundan:

“**Portlatishsanoat**” AJ ustav kapitalidagi 63,03 foiz aksiya paketlari 7 937 065 405,19 so‘m;

“**Toshkent viloyati maxsus montaj qurilish**” MChJ ustav kapitalidagi 0,2 foiz ulushi 4 306 000,0 so‘m;

“**Maxsus montaj konstruksiya**” MChJ ustav kapitalidagi 100 foiz ulushi 514 600,0 so‘mni tashkil etishi **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Kompanianing amaldagi ustav fondi umumiyligi soni 7 599 491 dona egasining nomi yozilgan aksiyalarni bekor qilish yo‘li bilan 7 599 491 000 (*yetti milliard besh yuz to‘qson to‘qqiz million to‘rt yuz to‘qson bir ming*) so‘mga kamaytirilsin.

3. Kompanianing yangi ustav kapitali nominal qiymati 1 000 (ming) so‘mlik umumiyligi 6 000 (olti ming) so‘m bo‘lgan 6 dona oddiy aksiyalardan tashkil topishi belgilansin.

Bunda, Kompaniya buxgalteriya balansi 1-son shakl bo'yicha 06-satrda aks ettirilgan "Portlatishsanoat" AJ ustav kapitalidagi Kompaniyaning balans (qoldiq) qiymatidagi 7 937 065 405,19 so'm ulushini uzoq muddatli investitsiyasining chiqib ketishi hamda kompaniyaning ustav kapitali 6 000 so'm etib belgilash natijasida hosil bo'lgan 337 574 405,19 so'mga kompaniyaning ustav kapitalini avvalgi kamaytirilishidan hosil bo'lgan 312,0 so'm qarzdorlikni qo'shgan holda jami 337 574 717,19 (uch yuz o'ttiz yetti million besh yuz yetmish to'rt ming yeti yuz o'n yetti so'm o'n to'qqiz tiyin) so'mni quyidagi manbalar hisobiga hisobdan chiqarilsin:

Kompaniyaning 2024-yil 1-oktabr holatiga sof foydasi hisobidan shakllantirilgan 160 971 181,19 so'm zaxira fondi hisobiga;

176 603 536 so'mni (bir yuz yetmish olti million olti yuz uch ming besh yuz o'ttiz olti) tekinga olingan mulk hisobidan Kompaniya xarajatida aks ettirilishi ko'rsatib o'tilsin.

4. Kompaniya boshqaruv raisi (Shodiyev), Yagona aksiyador qarori bilan Kompaniyaning avvalgi ro'yxatdan o'tgan aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalarni belgilangan muddatlarda davlat ro'yxatidan o'tkazish choralarini ko'rмаганлиги ко'rsatib o'tilsin hamda ushbu masalalarni Kompaniya kuzatuv kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilishini ta'minlasin.

5. Kompaniyaning ustav kapitali kamaytirilishi munosabati bilan avval ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyalar Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tomonidan 2014-yil 14-iyuldag'i R0858-son, 2015-yil 7-mayda R0858 -2 - son, 2016-yil 1-iyunda R0858-3 - son, 2017-yil 7-aprelda R0858-4 - son, 2018-yil 14-dekabrda R0858-5 - son hamda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2020-yil 16-yanvarda R0858-6- son bilan ro'yxatga olingan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar matni 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Kompaniyaning qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar matnini imzolash vakolati Davaktiv agentligi direktorining birinchi o'rinosari N.Xusanovga berilsin.

7. Kompaniyaning yangi tahrirdagi ustavi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


8. Kompaniya boshqaruv raisi (Shodiyev) belgilangan tartibda:

Kompaniyaning yangi tahrirdagi ustavini davlat ro'yxatidan o'tkazilishini;

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar matnini Istiqbolli loyihalar milliy agentligidan ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davaktiv agentligi direktorining birinchi o'rinosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov